

---

## SAYYOR QABUL BO`LIB O`TDI



Mamlakatimizda inson manfaatlari oliy qadriyat darajasiga ko'tarildi. Bugun barcha davlat idoralari faoliyatida aholining murojaatlari bilan ishlash bo'yicha sifat jihatidan mutlaqo yangi tizim yaratildi. Joylarda o'tayotgan sayyor qabullar xalqning dardini eshitish, ularning muammolarini hal etishda, shak-shubhasiz, kutilgan natijalarni bermoqda.

Zero, Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak.

Farg'ona shahar hokimi va sektor rahbarlari b'irgalikda 3 maktabda sayyor qabul o'tkazishdi

Bu safargi sayyor qabulda 90 nafar fuqaro tomonidan 105 ta masalani o'rtaqa tashlandi. Ushbu murojaatlardan 58 tasi joyida hal etildi. 14 tasi bo'yicha huquqiy tushuntirish berildi. 18 tasi masalani hal etish uchun o'rganish jarayonida.

Qabul jarayonlari 20:30 gacha davom etdi. Hokim va sektor rahbarlari har bir murojaatni jiddiy ko'rib chiqishdi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#)

2021-08-12 12:26:36